

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**



**AKADEMIK LITSEYLARDA XORIJIY TILLAR FANIDAN
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI**
(Umumta‘lim fanlar)

TOSHKENT – 2020

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2020-yil 14-avgustdagi № 3-son majlis bayoni bilan ma’qullangan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

D.Boboqulova

TXVU akademik litsey o‘qituvchisi

Taqrizchi:

R.Rozikova

TXVU ingliz tili o‘qituvchisi

CHET TILNI AMALIY O‘RGANISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

O‘quvchilarga nutq faoliyatining turlari – tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuvni hamda til materiali – leksika, grammatika, talaffuzni o‘rgatish natijasida ularning chet tilda kommunikativ (axborot almashish) faoliyat shakllantiriladi.

Davlat ta’lim standartiga asosan akademik litseylarning 1-2 kurslarida chet tilini o‘qitish shartli ravishda **B1 (B1+)** hisoblanadi. 2 kursga kelib o‘quvchilar tarjimaviy mashqlardan ham keng foydalanishadi: chet tildan ona tiliga yozma tarjima (notanish so‘z ma’nosini ochish usuli) va yangi leksik birlikning ma’nosini ochish uchun mo‘ljallanadi.

Mazkur darajalarning har bir sinfi oxirida o‘quvchilar quyidagi malakalarni egallashlari lozim:

B1/B1+1 (I kurs) Tinglab tushunish

B1

- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakat(lar) davlat, boshqaruvi va ta’lim tizimi, kasbga yo‘naltirish, iqtisodiyot, aloqa tizimi, internet tarmog‘i, mediata’lim, adabiyot va san’at kabi mavzulardagi matnlarni tinglab tushunish va asosiy g‘oyasini anglab yetish;

- Kasbiy faoliyatga yoki kundalik hayotga taaluqli so‘zlardan tashkil topgan audiomatnni tushunish;

- audiomatn asosida bahs-munozaralarda ishtirok eta olish;

- televideniye va radio eshittirish, filmlarni asosiy g‘oyasini tushunish;

- tili o‘rganilayotgan mamlakatga tashrif mobaynidagi turli xil

vaziyatlardagi suhbatlarni tushunish;

- taassurot, voqea, umid, intilishlarni tasvirlay olish, o‘z fikri, kelajakdagi rejalarini bayon qila olish.

B1+

- Hujjatli kichik hajmdagi filmlarni tushunish;

- atrof-muhitdagi voqealarga oid ma’lumotlarni asosiy g‘oyasini tushuna olishi va munosabat bildira olish.

Gapirish

B1

- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlarning davlat, boshqaruv va ta’lim tizimi, kasbga yo‘naltirish, iqtisodiyot, aloqa tizimi, internet tarmog‘i, mediata’lim, adabiyot va san’at kabi mavzulardagi matnni gapira olish;

- fikr almashish, ma’lumotni tekshira olish va munosabat bildira olish;

- muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish;

- audio-video, multimedia, fonogramma, ovozli film lavhalari orqali tinglagan matnlarning asosiy mazmunini hikoya qilib bera olish;

- mavzu asosida taqdimotlar o‘tkaza olish;

- iboralarni ma’nodosh so‘zlar va so‘z birikmalari, iboralarga o‘zgartira olish;

- film, biror narsaning tarixi yoki biror asarning asosiy syujeti haqida gapira

olish.

B1+

- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlarning davlat, boshqaruv va ta'lim tizimi, kasbga yo'naltirish, iqtisodiyot, aloqa tizimi, internet tarmog'i, mediata'lim kabi mavzularda og'zaki fikr bayon eta olish;
- Muayyan iboralarni ularning ma'nodosh ibora yoki so'zlar bilan almashtirib qo'llay olish;
- ko'chirma va o'zlashtirma gaplardan og'zaki nutqda erkin foydalana olish.

O'qish

B1

- grafik matnlarning asosiy mazmunini o'qib tushuna olish;
- olingan ma'lumotlarga aniqlik kiritish uchun matnni qayta o'qiy olish;
- internetda berilgan, elektron pochta orqali yuborilgan ma'lumotlar, ommaviy axborot vositalari, video va multimedia vositalari orqali film va lavhalardagi matnni o'qiy olish va mazmuniga munosabat bildirish;
- biror voqea-hodisa tasvirlangan ma'lumot, matn va yangiliklarni tushuna olish va munosabat bildirish;
- bir daqiqada 150-170 ta so'z tezligida o'qiy olish;
- o'qilgan matn asosida murakkab mashqlar bajara olish.

B1+

- bir daqiqada 170-190 ta so'z tezligida o'qiy olish;
- o'qilgan matn asosida murakkab mashqlar bajara olish;
- notanish matnlarning asosiy mazmunini o'qib tushuna olish, keng tahlil qilish;
- olingan ma'lumotlarga aniqlik kiritish uchun matnni o'qib asosiy g'oyani aniqlay olish.

Yozuv

B1

- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlarni davlat, boshqaruvi va ta'lim tizimi, kasbga yo'naltirish, adabiyot va san'at, iqtisodiyot, aloqa tizimi, internet tarmog'i, mediata'lim, adabiyot va san'at kabi mavzulardagi ma'lumotlarni yozma bayon eta olish;
- shaxsiy xatlarda o'zining kechinmalari va turli ma'lumotlari va taassurotlarini bayon qila olish;
- tarjimai hol yoza olish;
- sodda turdagi so'rovnomalar to'ldira olish;
- xat (norasmiy), e-mail, SMS, eslatma, xabar, hisobot, maqola va kundaliklarni yozishning usul va shakllarini to'g'ri qo'llay olish;
- o'tilgan va erkin mavzular asosida diktant, bayon yoza olish;
- yozilgan ishni tekshirish, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qila olish va to'g'rilab qaytadan yoza olish;
- idrok etilgan matnning mazmunini qisqacha yozish.
-

B1+

- biror mavzu yoki muammo yuzasidan sodda murojaatlar yoza olish;
- o'zgaralar fikrini tahlil qilish va unga munosabat bildira olish;
- matn va ma'lumotlar asosida turli mashqlar bajara olish.

(II kurs)**Tinglab tushunish****B1**

- Turli sohalarga oid kasbga bo'lgan audio, video lavhalar, media mahsulotlar, internet tarmog'idagi ma'lumotlar, televideniye va radio eshittirish, filmlarni tushunish, va asosiy g'oyasini ajrata olish;
- kichik hajmdagi hujjatli filmlarni asosiy g'oyasini tushunish;
- Kasbiy faoliyatga yoki kundalik hayotga taalluqli so'zlardan tashkil topgan audiomatnni tushunish;
- audiomatn asosida bahs-munozaralarda ishtirok eta olish;
- tili o'rganilayotgan mamlakatga tashrif mobaynidagi turli xil vaziyatlardagi suhbatlarni tushunish;
- atrof-muhitdagi voqealarga oid ma'lumotlarni asosiy g'oyasini tushuna olishi va munosabat bildira olish;

B1+

- Notanish bo'lgan audiomatnga munosabat bildirish uchun tinglab tushunish;
- kichik hajmdagi hujjatli filmlarni tushunish va asosiy g'oyani ajrata olish;
- notanish matnni tushunish va asosiy g'oyani ajrata olish;
- audio va videomatn asosida bahs-munozaralarda o'z munosabatini erkin ifoda eta olish.

Gapirish**B1**

- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlarning davlat boshqaruvi va ta'lim tizimi, kasbga yo'naltirish, iqtisodiyot, aloqa tizimi, internet tarmog'i, mediata'lim, adabiyot va san'at kabi mavzulardagi matnni tahlil qila olish va munosabatini bildirish;
- Muayyan iboralarni ularning ma'nodosh ibora yoki so'zlar bilan almashtirib qo'llay olish;
- ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni nutq jarayonida qo'llay olish;
- o'z sohasiga aloqador tanish mavzularda ishonch bilan muloqotga kirisha olish;
- fikr almashish, ma'lumotni tekshira olish va munosabat bildira olish;
- muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish va munosabat bildira olish;

B1+

- ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni nutq jarayonida erkin qo'llay olish;
- kichik hajmdagi ilmiy-ommabop ma'lumotlarni tahlil qila olish.

O'qish

B1

- turli sohalarga oid matnni o'qib tushunish;
- matndan kerakli ma'lumotni topa olish;
- biror voqea-hodisa tasvirlangan ettirilgan ma'limot, matn va yangiliklarni tushuna olish, tahlil qilish va munosabat bildirish;
- bir daqiqada 170-190 ta so'z tezligida o'qiy olish;
- o'qilgan matn asosida murakkab mashqlar bajara olish.

B1+

- bir daqiqada 190-200 ta so'z tezligida o'qiy olish;
- o'qilgan matn asosida murakkab mashqlar bajara olish;
- notanish matnlarning asosiy mazmunini o'qib tushuna olish, keng tahlil qilish va munosabat bildirish;
- kichik hajmdagi ilmiy-ommabop ma'lumotlarni o'qiy olish.
- o'qiladigan matndagi polisemantlar, konversiya hodisasi kabilarni fahmlay olish;

Yozuv

B1

- O'zi uchun qiziqarli bo'lgan mavzuda o'rtacha 250-300 tagacha so'zdan iborat matn tuza olish;
- turli sohalarga oid matnni tahlil qila olish va munosabatini bildirish;
- notanish mavzuda oz fikrini bayon qila olish;
- tarjimai hol yoza olish;
- so'rovnomalar to'ldira olish;
- xat (norasmiy), e-mail, SMS, eslatma, xabar, hisobot, maqola va kundaliklarni yozishning usul va shakllarini to'g'ri qo'llay olish;
- yozilgan ishni tekshirish, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qila olish va to'g'rilab qaytadan yoza olish;
- matn va ma'lumotlar asosida turli mashqlar bajara olish.

B1+

- biror mavzu yoki muammo yuzasidan yozma murojaatlar yoza olish;
- muayyan iboralarni ularning ma'nodosh ibora yoki so'zlar bilan almashtirib qo'llay olish;
- ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni nutq jarayonida erkin qo'llay olish;
- o'z sohasiga aloqador tanish mavzularda ishonch bilan yozma munosabat bildirish;
- muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish va munosabat bildirish.

INGLIZ TILINING GRAMMATIK MINIMUMI

I kurs (B1)

- **Majhul nisbat**
- **Oddiy zamonlar** (hozirgi, o`tgan, kelasi)
- **Tugallangan zamonlar** (hozirgi, o`tgan, kelasi)
- **Davomli zamonlar** (hozirgi, o`tgan, kelasi)
- **“Will” va “to be going to...”**
- **Modal fe'llar** (shoud, must, have to, mustn`t, don`t have to)
- **Sifat va uning darajalari**
- **“If” shart ergash gaplar**
- **Iboraviy fe'llar**
- ***So, such, too, enough* daraja miqdor ravishlari**
- ***Every, all* daraja miqdor ravishlari**
- **Maxsus so'roq so'zlar**
- **O`zlashtirma gaplar**
- **Bog`lovchi so'zlar**
- **Fe'lning noaniq shakllari**
- **Gap qurilmasi**
- ***Both, either, neither* olmoshlari**
- **Murakkab gaplar**
- **Shart ergash gaplar**

II kurs (B1+)

- **Infinitive ni maqsadga ko`ra ishlatish**
- ***For, since, yet***
- **Takroriylikni bildiradigan ravishlar**
- **Teng bog'lovchilar**
- **Bog'lovchilar**
- **Bog'lovchi fe'llar**
- **Modal fe'llar**
- **Shart ergash gaplar**
- **O'tish so'zlari *however, moreover, firstly, secondly, first of all***
- **Holat ravishlari**
- **Tugallangan zamonlar** (hozirgi, o`tgan, kelasi)
- **Tasdiq so'roq gaplar**
- **Iboraviy fe'llar**
- **Fe'lning noaniq shakllari va gerundiy**

INGLIZ TILI FANIDAN MAVZULAR TAQSIMOTI

I Kurs

№	Mavzular	Umumiy yuklama (soatlarda)		
		Hammasi	Auditoriyadagi o'quv yuklamasi	Mustaqil ish
			amaliy	
1.	I. My country -my pride 1.A. Welcome to Uzbekistan 2.B. Famous people	6	6	
2	II. What is your specialty? 1.A. Introduction to the speciality 2. B. Job interview	10	6	4
3	Mid-term 1	2	2	
4	III. My future plans 1. A. Looking back ... moving on... 2.B. Where to go?	10	6	4
5	IV. Time management 1.A. When? Where? How? 2.B. Priority organizer	10	4	4
6	Mid-term 2	2	2	
7	IV. Time management 2.B. Priority organizer	2	2	
8	V. Team building 1. A. Teenage problems 2.B. Study with others	12	8	4
9	Final test			
10	I kurs 1 semester	52	36	16
11	VI. International relationship 1.A. International organization 2.B. Youth organizations in Uzbekistan	6	6	
12	VII. Filling in forms 1.A. Formal and informal text 2.B. Application forms	10	6	4
13	Mid-term 1	2	2	
14	VIII. Identifying your skills 1.A. Success as a learner 2. B. How smart are you?	10	6	4
15	IX. IT skills 1.A. Basics of e - learning 2.B. Internet safety	8	4	4

16	Mid-term 2	2	2	
17	IX. IT skills 2.B. Internet safety	2	2	
18	X. Literature 1.A. Uzbek literature 2.B. World literature	11	8	3
19	Final Test			
	I kurs 1 semester	51	36	15
	I kurs Jami	103	72	31

II Kurs

№	Mavzular	Umumiy yuklama (soatlarda)		
		Hammasi	Auditoriyadagi o'quv yuklamasi	Mustaqil ish
			amaliy	
1	I. Study skills achievement 1.A. Active learning 2.B. Creative ways of learning	18	12	6
2	II. Save the Earth 1.A. Environmental problems 2.B. Global warming	18	12	6
3	Mid-term 1	2	2	
4	III. Keeping fit 1.A. My health-my wealth 2.B. Healty food	18	12	6
5	IV. Tourism, travel 1.A. On the move 2.B. Uzbek tourism	18	12	6
6	Mid-term 2	2	2	
7	V. Market economy 1.A. What is marketing? 2.B. Advertising and shopping	18	12	6
8	VI. Service 1.A. Selling the service	8	8	
9	Final test			
10	II kurs 1 semester	102	72	30
11	VI. Service 2.B. Good or poor service	6	6	
12	VII. Literature 1.A. Literature genres 2.B. A book review	18	12	6

13	VIII. Plagiarism 1.A. What is plagiarism?	9	6	3
14	Mid-term 1	2	2	
15	VIII. Plagiarism 2. B. How to avoid plagiarism?	9	6	3
16	IX. Self-evaluation 1.A. Self –assessment 2.B. The role of feedback	18	12	6
17	X. My student life-my golden period 1.A. The Preparation	9	6	3
18	Mid-term 2	2	2	
19	XI. My student life-my golden period 2.B. My dream job	9	6	3
20	XII. My Future	10	4	6
21	XIII. We are School Leavers	6	6	
22	XIV. My Land	4	4	
23	Final test			
	II kurs 2 semester	102	72	30
	II kurs hammasi	204	144	60
	I va II kurs	307	216	91

IX. TAVSIYA ETILADIGAN MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktyabrdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 400-sonli qarori.
2. "Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2008 yil 30 apreldagi 01-148Q/Q, 118, 16/QQ-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 2012- yil 10- dekabrdagi "Chet tillarini o'rganishni tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1875-son qarori,
4. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi 5-sonli qarori.
5. 2013-yil 8 maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori.
6. "Chet tillar o'qituvchilari uchun CEFR haqida qo'llanma" L.Kirkham, A.Iriskulov, F.Rashidova., 2013 y.

7. 1-kurs uchun English B1. Bakiyeva G., Irisqulova A., Rashidova F., Tillayeva N., Karimova Z., Tursunboeva S., Norova D., Djaloldinova M., Mamanabiyeva D.
8. 2-kurs uchun English B1. Bakiyeva G., Irisqulova A., Rashidova F., Tursunboeva S., Tillayeva N., Karimova Z.
9. 3-kurs uchun English B1. Rashidova F.
10. 10-sinf uchun CEFR B1. Rashidova F., Tillayeva N., Karimova Z.
11. 11-sinf uchun CEFR B1. Rashidova F., Tillayeva N., Karimova Z.

Qo'shimcha manbalar:

12. CEFR Guidebook at Common European Framework of Reference for Languages www.coe.int.
 13. Manual at Manual for Relating language examinations to the CEFR
 14. www.examenglish.com
 15. www.busyteacher.org
 16. www.islcollective.com
 17. www.pearsonlongman.com/ae/cef/cefguide
 18. rcl.enl.uoa.gr
 19. The Relevance of the CEFR to Teacher Training;
clients.squareeye.net/.../Baby2-08CECR-North...
 20. CEFR & Resources | EAQUALS; www.eaquals.org
 21. The CEFR: DELF DALF Suisse
 22. www.delfdalf.ch/index.php?id=155&L=1
 23. www.goethe.de/lrn/prj/pba/bes/enindex.htm
 24. European Bank of Anchor Items for Foreign Language Skills ...
 25. The main objective of the project is to develop CEFR-based banks of anchor items for the assessment of three foreign languages (English, French and German)
- Is CEFR applicable to non-European languages? www.soas.ac.uk.